

## INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING O'QUVCHILARNING NUTQ FAOLLIGIGA TA'SIRI

**Ramazonova Sabrina Ruslan qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti 1-fakulteti talabasi  
[sabrinaramazonova9@gmail.com](mailto:sabrinaramazonova9@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Nosirova Mubina Olimovna,**

O'zDJTU Umumiy tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi  
[m.nosirova@uzswlu.uz](mailto:m.nosirova@uzswlu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida interfaol usullarning o'quvchilarning nutqiy faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, an'anaviy o'qitish yondashuvlari ko'pincha chet tili o'rganuvchilarning faol ishtirokini cheklab, ularning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Shu bois, interfaol metodlarning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati alohida e'tibor kasb etadi. Maqolada rolli o'yinlar, guruh muhokamalari va hamkorlikda o'rganish kabi metodlarning talabalarning nutq ko'nikmasi, motivatsiyasi hamda o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishdagi roli yoritilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol usullar asosida tashkil etilgan darslar til o'rganuvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ularning tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** interfaol usullar, nutq ko'nikmasi, an'anaviy ta'lim tizimi, kommunikativ yondashuv, motivatsiya, rolli o'yinlar, ijtimoiy konstruktivizm.

**Abstract.** This article analyzes the impact of interactive methods on students' speech activity in the process of teaching English. The relevance of the study is that traditional teaching approaches often limit the active participation of foreign language learners and are not sufficiently effective in developing their speech skills. Therefore, the role and importance of interactive methods in the learning process deserves special attention. The article highlights the role of methods such as role-playing games, group discussions, and cooperative learning in increasing students' speech skills, motivation, and self-confidence. The results of the analysis show that lessons organized on the basis of interactive methods increase the speech activity of language learners, develop their practical language skills, and ensure the effectiveness of the learning process.

**Keywords:** interactive methods, speaking skills, traditional education system, communicative approach, motivation, role-playing games, social constructivism.

**Аннотация.** В данной статье анализируется влияние интерактивных методов на речевую активность студентов в процессе обучения английскому языку. Актуальность исследования заключается в том, что традиционные подходы к обучению часто ограничивают активное участие изучающих иностранный язык и недостаточно эффективны в развитии их речевых навыков. Поэтому роль и важность интерактивных методов в процессе обучения заслуживают особого внимания. В статье подчеркивается роль таких методов, как ролевые игры, групповые дискуссии и кооперативное обучение, в повышении речевых навыков, мотивации и уверенности в себе студентов. Результаты анализа показывают, что уроки, организованные на основе интерактивных методов, повышают речевую

активность изучающих язык, развивают их практические языковые навыки и обеспечивают эффективность учебного процесса.

**Ключевые слова:** интерактивные методы, навыки устной речи, традиционная система образования, коммуникативный подход, мотивация, ролевые игры, социальный конструктивизм.

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv jarayonida ingliz tili xalqaro muloqotning asosiy vositasiga aylanib bormoqda. Shu bois, ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish nafaqat grammatik bilimlarni berish, balki o'quvchilarda erkin va samarali nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Nutq ko'nikmasi til o'rganish jarayonining eng muhim va murakkab jihatlaridan biri bo'lib, u o'quvchining fikrini erkin ifoda etish, muloqotga kirishish va o'z fikrini qiyinchiliklarsiz asoslab berish qobiliyatini belgilaydi.

Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, haligacha ko'plab o'quvchilar ingliz tilida muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunga asosiy sabab sifatida dars jarayonida yetarli nutqiy amaliyotning yo'qligi, xatoga yo'l qo'yishdan qo'rquv hamda an'anaviy o'qitish usullarining ustunligi ko'rsatiladi. An'anaviy o'qitish tizimida o'qituvchi dars jarayonida asosiy rolda bo'lib, o'quvchilar ko'proq nafaol tinglovchi rolidagi qolib ketadilar, bu esa ularning nutq rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi..

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta'lim tizimi interfaol usullarga asoslanib, ta'lim jarayonida o'quvchilarning rolini oshirib, ularni ta'lim jarayonining markaziga olib chiqish yondashuviga o'tmoqda. Interfaol usullar — bu o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish, ular o'rtasida hamkorlik va muloqotni kuchaytirish orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish strategiyalaridir. Tilshunos olim J.C.Richards (2006) fikriga ko'ra, kommunikativ yondashuv tilni faqat grammatik qoidalarni yodlash orqali emas, balki uni real hayotiy muloqot jarayonlarida faol qo'llash orqali samarali o'zlashtirishni nazarda tutadi. Interfaol metodlar ham o'quvchilarni faollikka undaydi, ularning muloqot qilish ehtiyojini kuchaytiradi hamda tilni tabiiy kommunikativ muhitda qo'llash imkonini yaratadi. Natijada o'quv jarayoni nafaqat bilim olish, balki amaliy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish maydoniga aylanadi. Shuning uchun ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda interfaol usullarning talabalarning nutqiy faoliyatiga ta'siri, ularning samaradorligi hamda pedagogik ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi.

**Asosiy qism.** Ingliz tilini o'qitishda interfaol yondashuvlar nutq ko'nikmasini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi. Kommunikativ til o'qitish nazariyasiga ko'ra, tilni o'rganish jarayoni faqat grammatik qoidalarni yodlash emas, balki real muloqot orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, Brown (2007) til o'rganishda faol muloqot va o'zaro fikr almashish asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydi, bu esa interfaol usullarni dars jarayonining ajralmas qismiga aylantiradi.

Shu bilan birga, til o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda interfaol topshiriqlarning amaliy ahamiyati alohida qayd etiladi. Jumladan, Larsen-Freeman (2011) fikriga ko'ra, rolli o'yinlar va kommunikativ mashg'ulotlar o'quvchilarga tilni sun'iy emas, balki tabiiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Xususan, ayrim tadqiqotlarda rolli o'yinlar (role play) va guruh muhokamalari (group discussions) talabalarga real kundalik hayot muloqot vaziyatlarini yaratib berishi natijasida ularning nutq ravonligi va o'ziga ishonchi sezilarli darajada oshishi ta'kidlanadi. Bunday faoliyatlar o'quvchilarga tilni to'g'ridan to'g'ri muloqotlarda har

xil vaziyatlarda qo'llash imkonini yaratadi, bu esa bilimlarni mustahkamlash va chuqurroq o'zlashtirishga olib keladi.

Nazariy asos sifatida Vygotskiyning ijtimoiy konstruktivizm g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Uning ushbu yondashuvi o'zaro ijtimoiy ta'sirga asoslangan bo'lib, bilim yakka tartibda emas, balki guruh bo'lib o'rganish orqali shakllanadi. Bu esa til o'rganishda hamkorlik, muloqot va birgalikdagi faoliyatning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Jamoaviy topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, biz, O'ZDJTU 2301- guruh talabalari o'quv jarayonida interfaol usullarni, rolli o'yinlar (role play), juftlikda ishlash (pair work) va jamoaviy topshiriqlarni (group work), qo'llab ko'rib, uning nutq ko'nikmasini oshirish va o'quvchilarning ingliz tilida muloqot qilishiga ijobiy ta'sirini aniqladik. Umumiy qilib aytganda, interfaol metodlar o'quvchilarning fikrlash va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, til o'qitish va psixolingvistika sohasida ishlagan taniqli venger olimi Zoltán Dörnyei tomonidan o'rganilgan motivatsiya nazariyasi til o'rganishda psixologik omillarning muhimligini ko'rsatadi. Unga ko'ra, o'quvchining o'ziga ishonchi va ichki motivatsiyasi oshsa, u tilni ko'proq ishlatadi va tezroq o'rganadi. Interfaol mashg'ulotlar esa aynan shu psixologik to'siqlarni kamaytirishga yordam beradi, chunki o'quvchilar kichik guruhlarda yoki juftliklarda ishlaganda o'z fikrlarini erkinroq ifoda etadilar va xato qilish qurquvi kamayadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'qitishda interfaol usullar talabalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda eng samarali pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish usullari ko'proq grammatik bilim va nazariy yodlashga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning erkin muloqot qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Aksincha, interfaol metodlar o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi va ularga real kommunikativ vaziyatlarda tilni amaliy qo'llash imkonini yaratadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili ham shuni tasdiqlaydiki, rolli o'yinlar, guruh muhokamalari, juftlikda ishlash va hamkorlikdagi topshiriqlar kabi interfaol faoliyatlar talabalarning nutq ravonligini oshiradi, ularning so'z boyligini kengaytiradi hamda o'z fikrini erkin ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bunday yondashuvlar o'quvchilarning psixologik to'siqlarini, jumladan xatodan qo'rquv va ishonchsizlikni kamaytiradi, bu esa Dörnyei (2001) ta'kidlagan motivatsion omillar bilan ham bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, interfaol usullar o'quv jarayonini yanada jonli, qiziqarli va samarali qilish orqali talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Natijada o'quvchilar nafaqat tilni o'rganadilar, balki uni real hayotiy muloqotda qo'llashga tayyor kompetent shaxsga aylanadilar.

Umuman olganda, interfaol yondashuvlar zamonaviy ingliz tili ta'limining ajralmas qismi bo'lib, ularni dars jarayoniga keng joriy etish talabalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Shuning uchun ham o'qituvchilar interfaol metodlarni muntazam qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada oshirishlari maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Brown, H.D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). New York: Pearson Longman.
2. Dörnyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching (3rd ed.). Oxford: Oxford University Press.
4. Richards, J.C. (2006). Communicative Language Teaching Today. New York: Cambridge University Press.
5. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.